

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	3464TKJU* <b>Familiya Ism (Viloyat)</b> <b>*JAVOBLAR</b>
Namuna: 3464TKJU*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
<b>Izoh:</b>	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida <b>O',G'</b> harflari qatnashsa ularni o'rniga <b>U</b> va <b>G</b> harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. <b>15.07.2019-17.07.2019</b>	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat <b>21:00</b> gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni <b>@repetitsiontestuz</b> kanalida soat <b>22:00</b> e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBI

999993

BLOKLAR:

Kimyo (3.1)  
Matematika (2.1)  
Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

**DIQQAT!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

## KIMYO

1. Moddaga tegishli bo'lgan xossalarni aniqlang. 1) zichlik; 2) yadro zaryadi; 3) elektron qavatlar; 4) qaynash va suyuqlanish temperaturallari; 5) izotoplar; 6) rang; 7) atom massa; 8) agregat holat  
A) 1, 4, 6, 8 B) 3, 5, 7  
C) 1, 4, 8 D) 2, 3, 5, 7
2. **Xalkozin va kupritning o'zaro ta'sirlashuvidan olingan metall 80% li sulfat kislotada eritilganda n sh da 6,72 litr gaz hosil bo'lgan bo'lsa, olingan metall massasini (g) toping**  
A) 12,8 B) 19,2 C) 6,4 D) 25,6
- 4.
3. p – krezol, benzyl spirit va uchlamchi butyl spirtlarining 62 g aralashmasiga kaliy metalli tasir ettirilganda 89 kPa va 27° C da 9,8 litr vodorod ajralgan bo'lsa, aralashma tarkibidagi uchlamchi butil spirtning massa ulushini toping.  
A) 47,74 B) 51,86 C) 36,92 D) 66,67
4. 22,5 g aminokislota bilan to'la reaksiyaga kirishish uchun NaOH ning 120 g eritmasi sarflandi. Agar natriy gidroksid eritmasi tarkibida 12,3NA ta vodorod atomi mavjud bo'lsa, aminokislota aniqlang.  
A) glitsin B) alanin C) valin D) leysin
5. Quyidagi reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.  
 $P_xSy + 62HNO_3 \rightarrow xH_3PO_4 + yH_2SO_4 + 62NO_2 + 18H_2O$   
A) 154 B) 199 C) 214 D) 184
6. **Massasi 6 bo'lgan magniy karbonat angidrid gazida yondirilganda hosil bo'lgan metalmas necha gramm azot bilan reaksiyaga kirishadi?**  
A) 7 B) 1,75 C) 5,25 D) 3,5
7. HClO, HClO<sub>2</sub>, HClO<sub>3</sub>, HClO<sub>4</sub> tartibida kislotalik kuchi qanday o'zgaradi?  
A) ortadi B) o'zgarmaydi  
C) kamayadi D) avval ortadi, so'ngra kamayadi
8. X metalli Y metallmas bilan hosil qilgan X<sub>2</sub>Y<sub>3</sub> birikmasi oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi natijasida XO va YO<sub>4</sub><sup>-2</sup> shakliga o'tadi. Bunga ko'ra X<sub>2</sub>Y<sub>3</sub> molekulasida nechta electron ajratgan yoki biriktirgan?  
A) 9 e<sup>-</sup> ajratgan B) 22 e<sup>-</sup> biriktirgan  
C) 9 e<sup>-</sup> biriktirgan D) 22 e<sup>-</sup> ajratgan
9. 100 g temir va mis aralashmasiga aralashma massasining 1/8 qismicha temir qo'shilganda misning massa ulushi 7,5% ga kamaygan bo'lsa, dastlabki aralashmada metallar massa ulush farqi qancha?  
A) 67,5 B) 2,08 C) 35 D) 32,5
10. 3/14 g azot oksidi tarkibida 6/76 g azot borligi ma'lum bo'lsa, oksidning formulasini toping  
A) N<sub>2</sub>O<sub>5</sub> B) NO C) N<sub>2</sub>O<sub>3</sub> D) NO<sub>2</sub>
11. **4f energetik qobiqchadan oldin qaysi energetik qobig'cha elektron bilan to'ladi?**  
A) 5p B) 6p C) 6s D) 5d
12. **15,3 g metal oksididan 80,1 g metal bromidi olingan. Metallni aniqlang.**  
A) Mg B) Al C) Cr D) Fe
13. **X mol (suvda eruvchan) Me<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va 208 g BaCl<sub>2</sub> tutgan eritmalar 500 g dan aralashtirilganda Y g 11,08% li eritma olindi. Me ni aniqlang.**
- A) Rb B) Na C) Li D) K
14. Mol nisbatlari 1,25:1:0,25 bo'lgan is gazi, eten, propen aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan CO<sub>2</sub> geliy gazi bilan aralashtirildi. Bunda (D(H<sub>2</sub>)=12) 44,8 litr gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Boshlang'ich gazlar aralashmasidagi propenning hajmini (l) toping.  
A) 5,6 B) 7 C) 1,4 D) 28
15. Organizmda qaysi element miqdori kamayganda tishlar yemirila boshlaydi?  
A) Fe B) P C) F D) Ca
16. Tarkibida 36,12·10<sup>-23</sup> ta atomi bor SO<sub>3</sub> suvda eritilganda 45,15·10<sup>-23</sup> ta atom tutgan oleum eritmasi hosil bo'ladi. Olingan oleum tarkibidagi O atomlar sonini aniqlang.  
A) 96,32·10<sup>-23</sup> B) 72,24·10<sup>-23</sup>  
C) 24,08·10<sup>-23</sup> D) 30,1·10<sup>-23</sup>
17. Tarkibida Cu, Al, Zn, Mg saqlagan 252 g qotishmaga NaOH eritmasi ta'sir ettirilganda 112 l (n.sh.da) gaz ajraladi va 68 g qoldiq erimay qoladi, huddishunday massali namunaga HCl ta'sir ettirilganda 145,6 l (n.sh.) da gaz ajraladi va eritmada qoldiq qoladi. Qotishma tarkibidagi Al massasini aniqlang?  
A) 54 B) 130 C) 108 D) 56
18. Uchta kulonometrda elektr toki o'tkazildi. Elektroliz jarayonida Cu kulonometr katodining massasi 0,48 g ga teng, ikkinchi kulonometr katodining massasi esa 0,84 g ga, uchinchisidiki 1,62 g ga ortdi. Ikkinchi va uchinchi kulonometrlarning elektrodleri qaysi metallardan yasalganini aniqlang.  
A) Cu, Cd B) Mg, Fe C) Cd, Ag D) Zn, Cd
19. Tabiiy polimerni aniqlang.  
A) lignin B) polipropilen  
C) glukoza D) fenolfarmaldegid smola
20. Popov qoidasiga ko'ra, 5-metilgeksanon-3 oksidlanishida qanday moddalar hosil bo'ladi?  
A) atseton va propion kislotasi yoki 2-metilpropion kislotasi va sirka kislotasi  
B) chumoli kislotasi va propion kislotasi yoki 2 mol sirka kislotasi  
C) sirka kislotasi va 3-metilbutan kislotasi yoki propion kislotasi va 2-metilpropion kislotasi  
D) chumoli kislotasi va 2-metilpropion kislotasi yoki atseton va sirka kislotasi
21. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi? H<sub>2</sub>O →→ HF →→ CH<sub>4</sub> →→ NH<sub>3</sub>  
                  1 1       2 2       3 3  
a) ortadi; b) kamayadi;  
A) 1b, 2b, 3b B) 1a, 2b, 3b  
C) 1b, 2a, 3a D) 1a, 2b, 3a
22. Karbomidni suv bilan qo'shib qizdirilganda hosil bo'ladigan gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini hisoblang.  
A) 39 B) 22 C) 13 D) 8,5
23. A + xB → 2C reaksiyada 0,05·10<sup>2</sup> mol A moddaning 20%i sarflandi. B ning 25%i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, x ni toping. (K<sub>m</sub>=1)  
A) 4 B) 2 C) 3 D) 5
24. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotaning 54,6g 10 molyalli eritmasida eritilganda vodorod gazi va metall xloridning 32,2% li eritmasi hosil bo'lgan bo'lsa, noma'lum metallni massasini (g) aniqlang.  
A) 74,0 B) 38,7 C) 89,5 D) 19,54
25. Alken xlor bilan ta'sirlashib 14,1 g dixloralkani, brom

bilan ta'sirlashib 23g bromalkanni hosil qilsa, alkenni aniqlang.

- A)  $C_2H_4$  B)  $C_3H_6$  C)  $C_5H_{10}$  D)  $C_4H_8$

26.  $Na^+$  ioni alangani qaysi rangga bo'yaydi?

- A) binafsha B) qo'g'ir C) sariq D) ko'k

27. Metall sulfat tuzi o'z massasidan uch marta ko'p massali suvda eritilganda eritmadagi metal kationlarining massa ulushi 1/20 ga teng bo'ldi. Tuzni aniqlang. ( $\alpha=1$ , gidroliz jarayonini hisobga olmag)

- A)  $Na_2SO_4$  B)  $K_2SO_4$  C)  $MgSO_4$  D)  $CuSO_4$

28. CO va  $CO_2$  ning 100 ml aralashmasiga 100 ml kislorod aralashtirildi. Reaksiyadan keyin gazlar aralashmasi tarkibidagi ortib qolgan kislorod hajmi dastlabki gazlar aralashmasidagi  $CO_2$  hajmidan 3 marta ko'p ekanligi aniqlandi. Dastlabki gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang.

- A) 24,4 B) 15,6 C) 31,2 D) 16,6

29. Benzoldagi bitta vodorod atomini metil radikaliga almashinishidan qanday modda hosil bo'ladi?

- A) fenol B) krezol C) toluol D) ksilol

30. Mis, aluminiy, rux va magniydan iborat 5,67 g qotishma ishqor eritmasi bilan tasirlashganda 1,232 litr(n.sh) gaz ajraldi va erimay qolgan qoldiq massasi 2,8 g bo'ldi. Xuddi shunday massadagi qotishma xlorid kislotada eritilganda 1,456 litr(n.sh) gaz ajraldi va erimay qolgan qoldiq ham hosil bo'ldi. Qotishma tarkibidagi misning massasini (g) aniqlang.

- A) 2,56 B) 2,6 C) 0,24 D) 0,27

## MATEMATIKA

31. Ikki butun va musbat sonning yig'indisi 462 ga teng. Ulardan biri yozuvda 0 bilan tugaydi. Agar bu 0 ni o'chirib tashlasa, ikkinchi son olinadi. Kichik sonni toping.

- A) 44 B) 42 C) 38 D) 46

32. Hisoblang:

$$\frac{7,4 + \frac{13}{17} \cdot 0,15 \cdot 1 \frac{4}{13} \cdot 6 \frac{2}{3}}{0,2 \cdot 4,3 - 0,16}$$

- A) 12 B) 6 C) 10 D) 8

33.  $M$  ta sonning o'rta arifmetigi 14 ga teng, boshqa  $N$  ta sonniki esa 28 ga teng. Shu  $M + N$  sonning o'rta arifmetigi nimaga teng?

- A)  $\frac{14M + 28N}{M + N}$  B)  $\frac{N}{M}$   
C)  $\frac{14N + 28M}{M + N}$  D)  $\frac{M + N}{42}$

34.  $\frac{1}{2 + \sqrt{3}} + \frac{2}{\sqrt{5} - \sqrt{3}} - \frac{1}{2 + \sqrt{5}} - 4$  ifodaning qiymatini toping.

- A)  $\sqrt{5} - \sqrt{3}$  B) 0 C)  $\sqrt{5} + \sqrt{3}$  D) 4

35. Agar teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 18 ga teng bo'lsa, uning gipotenuzasini toping

- A)  $6\sqrt{2}$  B) 6 C)  $2\sqrt{6}$  D) 2

36. Radiusi 13 ga teng doira ichida doira markazidan 5 taga narida joylashgan  $M$  nuqta berilgan.  $M$  nuqta orqali uzunligi 25 bo'lgan  $AB$  vatar o'tkazilgan.  $AB$  vatar  $M$  nuqta orqali bo'lingan kesmalarining uzunligini aniqlang.

- A) 18; 7 B) 13; 12 C) 15; 10 D) 16; 9

37.  $ABCD$  parallelogrammda  $BD = 4\sqrt{2}$ ,  $\angle ADB = 60^\circ$ ,  $\angle CDB = 75^\circ$  bo'lsa,  $AB$  qanday bo'ladi?

- A)  $6\sqrt{2}$  B)  $3\sqrt{3}$  C)  $5\sqrt{3}$  D)  $4\sqrt{3}$

38. Agar muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylana

uzunligi  $\sqrt{\frac{8}{3}}\pi$  ga teng bo'lsa, uning yuzini toping.

- A)  $6\sqrt{3}$  B)  $\sqrt{3}$  C)  $4\sqrt{3}$  D) 6

39.  $\begin{cases} x - y = 2 \\ xy = 15 \end{cases}$  tenglamalar sistemasini yeching.

- A) (5;3), (-3;-5) B) (-5;-3), (3;-5)  
C) (5;3), (-5;-3) D) (-5;3), (3;-5)

40.  $a > b > 0$  va  $c = \frac{a+b}{b}$  berilgan. To'g'ri tasdiqni toping.

- A)  $c = 1$  B)  $c > 2$  C)  $a < c < 2$  D)  $c = 2$

41.  $(x+2)\sqrt{3-2x-x^2} \leq 0$  tengsizlikni yeching.

- A)  $[-3; -2] \cup \{1\}$  B)  $[-3; -2]$   
C)  $(-\infty; -3]$  D)  $(-\infty; -2]$

42. Arifmetik progressiyada  $a; 2a+2; 3a+4; \dots$  Dastlabki o'nta hadning yig'indisi 255 ga teng.  $a$  ni toping.

- A) 5 B) 7 C) 3 D) 2

43. Tenglamani yeching  $\log_2(9^{x-1} + 7) = 2 \cdot \log_2(3^{x-1} + 1)$ .

- A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

44.  $\vec{a}(6; 2; 1)$  va  $\vec{b}(0; -1; 2 + 2\sqrt{14})$  vektorlar berilgan.

$\vec{c} = 2\vec{a} - \vec{b}$  vektor uzunligini toping.

- A)  $6\sqrt{2}$  B) 15 C) 14 D) 13

45. Agar  $f(x) = 6x - 3$  bo'lsa,  $y = f(x-1)$  to'g'ri chiziqning burchak koeffitsiyentini toping.

- A) -6 B) 5 C) 7 D) 6

46. Prizmada jami 60 ta qirra. Unda nechta yon yoqlar bor?

- A) 21 B) 20 C) 24 D) 22

47. Asosining tomonlari 4 va 8 sm, diagonali esa 12 sm bo'lgan muntazam kesik to'rtburchakli piramidaning balandligini toping.

- A) 4,5 B) 3 C)  $6\sqrt{2}$  D)  $8\sqrt{2}$

48. Teng tomonli konus va teng tomonli silindrning to'la sirtlari, agar ularning hajmlari teng bo'lsa, qanday nisbatda bo'ladi?

- A)  $1 : \sqrt[3]{3}$  B)  $\sqrt{2} : \sqrt{3}$  C) 3:2 D)  $\sqrt[3]{3} : \sqrt[3]{2}$

49. Sharining katta doirasi yuzi  $25\pi$  ga teng. Shar markazidan yuzi  $12,75\pi$  ga teng bo'lgan shar kesimi tekisligigacha masofani toping.

- A) 2,8 B) 3,8 C) 3,5 D) 4

50. Agar  $f(x) = 3x^2 \cdot e^{\sin x} - 8$  bo'lsa,  $f'(\pi)$  ni toping.

- A)  $3\pi^2(3 - \pi)$  B)  $3\pi(2 + \pi)$   
C)  $2\pi(3 + \pi)$  D)  $3\pi(2 - \pi)$

51.  $y = \frac{65(x-8)}{8-x^{0,5}}$  funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

- A)  $(-\infty; 8) \cup (8; \infty)$  B)  $(-\infty; 64) \cup (64; \infty)$   
C)  $[0; 64) \cup (64; \infty)$  D)  $[0; 8) \cup (8; \infty)$

52. Muntazam uchburchakli prizmaning hajmi 16 ga teng. To'la sirtining yuzi eng kichik bo'lishi uchun asosning tomoni qanday uzunlikda bo'lishi kerak?

- A) 2 B) 4 C) 6 D) 3

53.  $a$  ning qanday qiymatlarida  $y=9x^2-12x+35a$  parabola absissalar o'qi bilan ikkita umumiy nuqtaga ega?

- A)  $a > \frac{4}{35}$  B)  $a < \frac{18}{35}$  C)  $a = \frac{4}{35}$  D)  $a < \frac{4}{35}$

54.  $\int \frac{\sin x}{\cos^4 x} dx$  ni hisoblang.

- A)  $\frac{3}{\cos^3 x} + C$  B)  $-\frac{1}{3\cos^3 x} + C$   
C)  $\frac{1}{3\cos^3 x} + C$  D)  $\frac{1}{\cos^3 x} + C$

55. Agar  $tg(x+y)=5$  va  $tgx=3$  bo'lsa,  $tgy$  ni toping.

- A) 8 B)  $\frac{1}{2}$  C)  $\frac{1}{8}$  D) 2

56. Bir ishchi ishning 10% ini  $t$  vaqtda, ikkinchi ishchi ishning 20% ini  $t+1$  vaqtda bajaradi. Agar ikkialasi birga ishlasa, ish qancha vaqtda bajariladi?

- A)  $\frac{5t(t+1)}{2t+1}$  B)  $\frac{10t(t+1)}{3t+1}$   
C)  $\frac{5t(2t+1)}{3t+1}$  D)  $15t+5$

57.  $8(x^4 + y^4) - \frac{1}{4}(x^2 + y^2) + \frac{1}{256} = 0$  ekanligini bilgan holda,  $|x| + |y|$  ni toping.

- A) 1 B)  $\frac{1}{4}$  C) 2 D)  $\frac{1}{2}$

58.  $A = \{1; 3; 5; 6; 7; 8; 9; 10\}$  va  $B = \{1; 5; 6; 7; 8; 10; 11\}$

to'plamlar berilgan.  $A \cap B$  to'plamning qism to'plamlari sonini toping.

- A) 16 B) 128 C) 64 D) 32

59. Quyidagi javoblardan qaysi biri bo'sh to'plam?

- A)  $A = \{x : x^2 \leq 0, x \in R\}$  B)  $A = \{x : |2x-3| = -4, x \in R\}$   
C)  $A = \{x : x^2 \leq x, x \in R\}$  D)  $A = \{x : 3x+5 = 0, x \in R\}$

60. Tennis turnirida 12 ta sportchi ishtiroq etmoqda. Tennischilar necha xil usul bilan oltin, kumush va bronza medallarini yutishi mumkin?

- A) 360 B) 1320 C) 720 D) 990

## ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Ismlar guruhiga mansub bo'lgan, metafora usulida ma'nosi ko'chgan yasama so'z qatnashmagan gapni belgilang.

- A) Yuragi qattiq ura boshladi.  
B) Tiyrak Hamidning nursiz hayotini bezagan birdan-bir narsa onasi Komila opaning so'zlagan ertaklari bo'ldi.  
C) Loyqa xayolotlar chashmaday tindi.  
D) Har holda, Toshkent ustiga yana qonli bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar, bu bir xudoga ma'lumdir.

62. Qaysi so'zda lablanmagan tor va keng unli qatnashgan?

- A) bilak B) ko'krak C) okean D) o'g'iz

63. Quyidagi shakllardan qaysi biri kesimlik(predikativlik) belgisini yuzaga keltiruvchi kesimlik ma'nolaridan hisoblanmaydi?

- A) tasdiq-inkor B) shaxs-son  
C) modallik D) nisbat

64. Sharqiy til an'anasida yozilgan asarni toping.

- A) «Muhabbatnomæ» B) «Qissayi Yusuf»  
C) «Qisasi Rabg'uziy» D) «Tafsir»

65. 1) Chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gulduradi.

2) Zaharli kinoyalar bilan suhbatdoshini chaqib ola boshladi.

3) Yaxshi emas danakni tishda chaqmoq.

Ushbu gaplarda ishtirok etgan chaq(moq) so'zi haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

A) Barcha gaplarda chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari sifatida qo'llangan.

B) 1- va 2-gapdagi chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari bo'lib, 3-gapdagi chaqmoq so'ziga nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi.

C) 2- va 3-gaplardagi chaqmoq so'zi bir so'zning turli ma'nolari bo'lib, 1-gapdagi chaqmoq so'ziga, nisbatan shakldosh so'zlar sanaladi.

D) Har uchala gapdagi chaqmoq so'zi o'zaro shakldosh so'zlar sanaladi.

66. Tinish belgilarining ketma-ket qo'yilish holati har doim kuzatiladigan gap tur(lar)ini aniqlang.

1) ko'chirma gapli qo'shma gap;

2) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap;

3) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap;

4) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

A) 2, 3, 4 B) faqat 1

C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

67. Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan Qoraxoniylar davlati qachon tashkil topgan?

A) IX asr oxirlarida B) X asr oxirlarida

C) XI asr boshlarida D) IX asr boshlarida

68. Odamlarni zudlik bilan o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi. Berilgan gap tarkibidagi nacha so'zda tovush tushishi hodisasi ro'y bergan va ular qaysi tovushlar?

A) 1 so'zda, i B) 4 so'zda; a va i

C) 3 so'zda; i va u D) 2 so'zda; i va a

69. Bog'langan qo'shma gaplarda qaysi bog'lovchilardan oldin nuqta qo'yilishi mumkin?

A) biriktiruvchi bog'lovchilardan

B) inkor bog'lovchilardan

C) ayiruvchi bog'lovchilardan

D) zidlovchi bog'lovchilardan

70. Berilgan qaysi so'zlarda so'zning ma'noli qismlari tartibi odatdagi tartibda joylashmagan?

1) oshirma (sifat); 2) isitma (fe'l); 3) yeyishli (sifat);

4) yoqilg'i; 5) qaynatma (fe'l);

6) qizg'anchiq; 7) suyanchiq.

A) 1, 3, 4, 6, 7 B) 2, 5, 6

C) 1, 3, 4, 7 D) 2, 3, 4, 5, 6

71. **Biz sizning do'stlaringiz yo'l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha jim turarmidik.** Gapda qaysi so'zlardan so'ng vergul qo'yilishi lozim?

A) biz B) do'stlaringiz, xato

C) biz, do'stlaringiz D) biz, borguncha

72. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.

xanuz, xiylakor, hushyor, hijjalomoq, nomoyon

A) 4 B) 1 C) 2 D) 3

73. Muzaffarning lo'ppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi. Ushbu gapda otli so'z birikmalarining soni nechta?

A) 7 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 5 ta

74. Ravishning ma'no jihatdan uch turi ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Bular piyoda asta-sekin O'rdaga bordilar.

B) Keyin sal hushimni yig'ib qaragam, oyoqlarim o'zidan-o'zi yurib ketyapti.

C) Qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

D) Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, unga bir

bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan.

75. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplardan foydalaniladi?  
 A) asosan darak va buyruq gaplardan  
 B) asosan buyruq gaplardan  
 C) faqat darak gaplardan  
 D) asosan buyruq va his-hayajon gaplardan
76. hokandoz, nomoyish, jaholat, tamosha, tadbqiq, mabodo, mojora, tag'dimot, ma'shum. Ushbu so'zlardan nechitasi noto'g'ri yozilgan?  
 A) 7 tasi B) 6 tasi  
 C) hammasi to'g'ri yozilgan D) 5 tasi
77. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tmog'imiz lozimki, barcha inson o'z tilida aniq va sof, talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirmog'i lozim. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping.  
 A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 2 ta
78. Abdurahmon Jomiy (1) va Vilyam Shekspir (2) asarlarida nechta so'zdan foydalangan?  
 a) 16000 ta; b) 20000 dan ortiq; c) 17600 ta; d) 18000 dan ortiq.  
 A) 1-a, 2-d B) 1-c, 2-b  
 C) 1-b, 2-a D) 1-c, 2-d
79. Tobe so'z fonetik o'zgarishga uchragan birikmalar qaysi javobda berilgan?  
 A) qiyin vaziyat, o'yin vaqti  
 B) yashash zavqi, do'stimning singlisi  
 C) so'roqsiz olish, ish o'rni  
 D) qiynalgan kishi, taqqa to'xtamoq
80. Kech kuz edi, men seni ko'rdim,  
 Derazamdan boqardi birov.  
 U sen eding, o, dehqon yurtim,  
 Turar eding yalangto'sh, yayov.  
 She'riy parchada ishtirok etgan olmoshlarning sintaktik vazifasini belgilang.  
 A) kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi  
 B) kesim, ega, to'ldiruvchi  
 C) ega, to'ldiruvchi, hol  
 D) kesim, ega, aniqlovchi
81. Berilganlardan egasi noma'lum gaplarni aniqlang.  
 1. Mana uy ham qurildi, suv quvurlari o'tkazildi.  
 2. Yo'lda ukam menga to'g'ri kelib qoldi.  
 3. To'garakka borish kerak.  
 4. Yo'lni kesib o'tishga to'g'ri keladi.  
 A) 1, 4 B) 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
82. Ko'chimning qaysi turini qisqargan ko'rinishdagi o'xshatish deyish mumkin?  
 A) majoz. B) ko'chim.  
 C) istiora. D) tanosub.
83. Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi qaysi qahramon "lu'batl shang" – "sho'x qo'g'irchoq" deya ta'riflangan?  
 A) Dilorom B) Layli C) Mehr D) Shirin
84. "Hibatul -haqoyiq" asari necha bobdan iborat?  
 A) 12 bob B) 16 bob C) 15 bob D) 14 bob
85. "Oygul bilan Baxtiyor" dostoni necha bo'g'inli she'rda yozilgan?  
 A) 8 bo'g'inli B) 9 bo'g'inli  
 C) 7 bo'g'inli D) 11 bo'g'inli
86. "boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur" satrlari muallifini toping.  
 A) T.Farog'iy B) Zavqiy  
 C) A.Navoiy D) Muqimiy

87. N.Ganjaviy Iroq hukmdori To'g'rul II ning iltimosiga ko'ra qaysi dostonini yaratadi?  
 A) "Xusrav va Shirin" B) "Haft paykar"  
 C) "Layli va Majnun" D) "Maxzan ul-asror"
88. Gunohingg'a tavba qilib, yig'lab yurgil,  
 Ketarmen deb ko'rub, sen ham ibrat olg'il,  
 Ketganlarni ko'rib sen ham ibrat olgil,  
 Ibrat olsang yotmish yering bo'lgay gulzor. Misralar muallifini toping.  
 A) Yu.X.Hojib B) M.Koshg'ariy  
 C) A.Yassaviy D) P.Mahmud
89. Janni Rodarining "Shahzoda Plombir" asarida "chentezimo" nima?  
 A) kitob B) pul C) xolodilnik D) muz
90. "Kuntug'mish" dostonida Xolbekaning kanizi kim edi?  
 A) Ximcha B) Bahragul  
 C) Suqsuroy D) Oqqiz

